

## YANGI AVLOD DARSLIKLARIDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING BERILISHI

*Abdullayeva Farida Xayrulla qizi  
Nukus davlat pedagogika instituti magistranti  
abdullayevafarida030@mail.com.*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda xorijiy tajribalar asosida yaratilayotgan darsliklarimiz o'zining bir qancha qulayliklari bilan afzaldir. Darsliklarda o'quvchilar uchun juda ko'p savol va topshiriqlar o'rinni olgan. Bu imkoniyatlar yoshlarimizning savodxonligi, bilimi va aqliy faoliyatini oshiribgina qolmasdan jahon ilm maydonida ham o'z o'rnini topishiga zamin yaratmoqda. Mazkur maqolada ushbu savol va topshiriqlarning dars jarayonidagi qulayliklari va afzalliklari, o'quvchilarning faolligini oshirishdagi imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Uch bosqichli topshiriqlar, bixeziyistik nazariyalar, retrospektiva, "Oqbo'yin" qissasi.

## YENİ NESİL DERS KİTAPLARINDA SORU VE ÖDEVLER

*Abdullayeva Farida Xayrulla kizi,  
Nukus Devlet pedagoji enstitüsü yüksek lisans öğrencisi*

**Özet.** Bugün yabancı deneyimlere dayanarak oluşturulan ders kitaplarımızın birçok avantajı var. Ders kitaplarında öğrencilere yönelik birçok soru ve ödev bulunmaktadır. Bu fırsatlar gençlerimizin okuryazarlığını, bilgisini ve entelektüel faaliyetlerini artırmakla kalmıyor, aynı zamanda dünya bilim alanında kendilerine yer bulmalarına da zemin oluşturuyor. Bu makalede, bu soruların ve ödevlerin ders sırasındaki rahatlığı ve avantajlarının yanı sıra öğrencilerin aktivitelerini artırma olasılıklarından bahsedilmektedir.

**Anahtar kelimeler.** Üç aşamalı görevler, davranışçı teoriler, geriye dönük, "Beyaz Boyun" hikayesi.

## ПОСТАНОВКА ВОПРОСОВ И ЗАДАНИЙ В УЧЕБНИКАХ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

*Абдуллаева Фарида Хайрулла кызы,  
магистрантка Нукусского государственного педагогического института*

**Аннотация.** Сегодня наши учебники, созданные на основе зарубежного опыта, пользуются большим спросом благодаря некоторым удобствам. Учебники содержат много вопросов и заданий для учащихся. Эти возможности не только повышают грамотность, знания и умственную работоспособность нашей молодежи, но и создают предпосылки для того, чтобы она нашла свое место на мировой научной арене. В данной статье речь пойдет об удобстве и преимуществах этих вопросов и заданий в процессе урока, о возможностях повышения активности учащихся.

**Ключевые слова.** Трехэтапные задания, бихевиористские теории, ретроспектива, рассказ "Белошайка".

## THE ISSUANCE OF QUESTIONS AND ASSIGNMENTS IN NEW GENERATION TEXTBOOKS

*Abdullayeva Farida Khairulla kizi,  
Nukus state pedagogical institute, master of uzbek language and literature*

**Annotation.** Today, our textbooks, created on the basis of foreign experiments, are preferable with a number of its own amenities. The textbooks included a lot of questions and assignments for students. These

opportunities lay the groundwork for our youth to gain a foothold in the world field of science without increasing their literacy, knowledge and mental activity. This article will talk about the convenience and advantages of these questions and assignments in the course process, their potential in increasing student activity.

**Key words.** Three-step assignments, behaviorist theories, retrospection, the story "The Swan".

Ta'lism standartlari ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilovchi asosiy hujjatdir. Undagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun o'quv rejalarini va dasturlar tuziladi, o'quv qo'llanmalar va darsliklar yaratiladi. So'ngi yillarda ko'plab rivojlangan davlatlarda, xususan, O'zbekistonda ham ta'lism standartlari kompetensiyaviylik tamoyili asosida tuzilishiga diqqat qaratilmoqda. "Ma'lum bir vazifani adekvat tarzida bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmui hamda tajriba"[2;B. 3.] kompetensiyadir. "Kompetensiyaviy yondashuv ta'limdagi **bixevoiristik nazariyalar** (inglizcha "behavior" – "xatti-harakat" so'zidan) ta'siri ostida shakllangan bo'lib, uning zamirida o'quvchilar bajara olishi lozim bo'lgan va o'qituvchi tomondan kuzatilib, baho beriladigan xatti-harakatlar yotadi."[1;B.24.] Yangi davr darsliklarida targ'ib qilingan uch bosqichli topshiriqlarga yuqorida to'xtalib o'tgan edik. Eski darsliklarimizga e'tibor bersak savol va topshiriqlar faqat mavzu yakunida ya'ni mustahkamlash bosqichida berilgan. Bu usul o'quvchilarning mavzuni to'liq tushunishida biroz qiyinchilik tug'diradi. Z.Mirzayerva xorijiy tajribalarga suyangan holda darsliklarda topshiriqlarni uch bosqichda amalga oshirishni ilgari surdi va va mazkur ilmiy ishimizning obyektlari bo'lgan 6-7-sinf darsliklarida amalda qo'lladi. Shuningdek, bu topshiriqlarda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish ham mumkin. Boshqa fanlardan egallagan bilimlari orqali ham javob berishi mumkin bo'lgan topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yaxshilashga zamin yaratadi.

7-sinf adabiyot darsligida Normurod Norqobilovning "Oqbo'yin" qissasi berilgan. darslikda berilgan uch bosqichli topshiriqlarni ko'rib chiqamiz. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir savol va topshiriq o'quvchining yoshini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Dastlab qisqacha yozuvchi hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asarni o'qishga tayyorlanamiz qismida esa o'qilmoqchi bo'lgan qissaning it haqida ekanligi berilgan va o'quvchilarga shunday savol qo'yilgan,

*It – inson tomonidan qo'lga o'rnatilgan ilk hayvonlardan biri. Buning sababi nimada bo'lishi mumkin? Itlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada? [3; B.12.]*

Bunday savollarni berishdan maqsad qissani o'qishga tayyoragarlik, itning insonga qanchalik vafodorligi haqida o'quvchilarda fikr uyg'otishdan iborat. Bu kabi savollarga har bir o'quvchi o'z dunyoqarashidan, fikrlash qobiliyatidan kelib chiqqan holda fikr bildirishi mumkin. Aytaylik ba'zi o'quvchilar o'z itlarini misol tariqasida keltirib, uning oila a'zolari uchun qay darajada ahamiyat kasb etishini dalillar asosida bayon qilib savollarga javob berishi mumkin:

*Itlar qadimgi miloddan avvalgi 15-10 ming yillarda xonakilashtirilgan. Chunki itlarda hid bilish, ko'rish, ta'm bilish, eshitish qobiliyati juda yaxshi rivojlangan. Ular nisbatan aqlli hayvonlar bo'lib tez o'r ganuvchan, buyruqlarimizni bajarishga qodir va hayotning har qanday vaziyatlarida foydali sherik bo'la oladilar. Shu sababli asosan ovchilar tomonida mezalit davrida qo'lga o'rnatilgan. Bugungi kunga kelib ham jinoyat qidiruv ishlarida itlarning roli juda katta. Itlar bizning sodiq do'stimizdir. Shuning uchun ham itlar haqida asarlar, kinofilmalar yaratilgan.*

Qissani o'qish davomida dastlab shunday savol berilgan:

1. Karim podachi sizda qanday taassuroq qoldirdi?
2. Sodiq aka nega Oqbo'yinni unga bermadi?

O'quvchilar qissaning savolgacha bo'lgan ma'lum qismi bilan tanishadilar va har bir o'quvchi asardan kelib chiqqan holda fikr bildiradilar. Ya'ni shu qismigacha o'zlarida tushuncha hosil qiladilar. Ushbu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Karim podachi it olishga kelgan bo'lib po'pisa qiluvchi va hayvonlarga rahmi kelmaydigan faqat o'z manfaati uchungina it saqlamoqchi bo'lgan obrazdir. Karim podachi itlarning juda yaxshi farqiga brogan holda O'qbo'yinni tanlaganini, o'rniga ikkita qo'y taklif qilganini ko'rgan Sodiq aka ham itning zoti yaxshi ekanligini payqagach unga bermaydi.

Asar davomida qahramonlar xarakterini olib beruvchi savollar ham muhim sanaladi. Chunki o'quvchilar qahramonlar xatti-harakatlari, xarakterlaridan kelib chiqqan holda vaziyatga baho berishni o'rganadilar. Muhokama qilamiz bosqichida mavzu yuzasidan fikrlash qobiliyatini o'stiruvchi savollar joy olgan.

3. *Karim podachi Oqbo'yindagi ko'rak va mahobatni ko'rib ham unga o'q uzganini qanday izohlaysiz?*

Chunki Karim podachi Oqbo'yinni ikki qo'y evaziga ham ololmagandi. O'zi ega chiqolmagan itdan alamzada bo'lgani uchun ham unga o'q uzadi.

4. *Hayvonlar dunyosi, xatti-harakatlari, o'zaro va insonlar bilan munosabatlari real tasvirlangan o'rnlarni matn asosida izohlang?*

Oqbo'yin, Oqto'sh, Malla kabi asar qahramonlari o'rtasidagi ziddiyatlar, ularning o'zlarini qanday tutishlari xatti-harakatlari orqali olib berilgan. Oqbo'yinning uyidagi xo'roz bilan hazilomuz urshishlari, Malla bilan orasidagi kuchli to'qnashuvlar asarda real tasvirlangan. Rasul bilan Oqbo'yin munosabatlari ham ular o'rtasida bir-biriga vafo va sadoqat borligidan dalolatdir. "Ba'zan muallif asar voqealarini bayon qilishda ularning xronologik (vaqt bo'yicha) tartibini buzishi – voqeа davomida oldinroq bo'lib o'tgan hodisalarga qaytishi mumkin. Bu usul **retrospektiva** deyiladi. Misol uchun, "Oqbo'yin" qissasida Karim podachi Mallani olib ketganidan keyin Oqbo'yin Malla bilan o'ynaganlarini eslaydi.[3;B.21.]

Muallifning bunday usulga murojaat qilishdan maqsad voqealar rivojining qizg'in tus olishini ta'minlash bilan birga voqealarini eslash orqali izohlashdan iborat. Umuman olganda, uch bosqichli topshiriqlarning darslikda berilishi mavzuni chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar har bir mavzuni, mavzuning har bir bandini to'la anglay olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirzayeva Z, Jalilov K. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Toshkent 2024.
2. Collins III J. W. and O'Brien N. P. (Eds). The Greenwood Dictionary of Education.2<sup>nd</sup> Edition. Santa Barbara: "Greenwood", 2011.
3. Mirzayeva Z, Jalilov K. O'rta ta'limga muassasalarining 7-sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik majmua. – Toshkent:Respublika ta'limg markazi, 2022.